

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03.30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

DUSANOV SALIM MAMARASULOVICH

**OLIV TA'LIM TIZIMIDA MOLIYAVIY RESURSLARDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation the abstract Doctor of Philosophy (PhD)
in economics sciences**

Dusanov Salim Mamarasulovich

Oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini
oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish3

Дусанов Салим Мамарасулович

Совершенствование теоретической базы повышения эффективности
использования финансовых ресурсов в системе высшего образования29

Dusanov Salim Mamarasulovich

Improving the theoretical base for increasing the efficiency of the use of financial
resources in the higher education system57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works61

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03.30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

DUSANOV SALIM MAMARASULOVICH

**OLIV TA'LIM TIZIMIDA MOLIVAVIY RESURLARDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
V2021.3.PHD/Iqt1758 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash web-sahifasida
(www.tsue.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

To'aliyev Nurislom
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayev Suyun Artikovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xasanov Rustam Robbimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent moliya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi
DSc.03.30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «24» 03 soat 14⁰⁰
dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871)233-60-01; e-mail: tsue@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish
mumkin (12-70 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov
ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-28-72; e-mail: tsue@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «10» 03 kuni tarqatildi.
(2023-yil «10» 03 dagi 35 - raqamli reyestr bayonnomasi).



S.K. Xudoyqulov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

B.D. Xajiyev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi,
dotsent

N.M. Mahmudov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida xalqaro va milliy miqyosdagi raqobatning kuchayib borishi sharoitida yuqori zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar yordamida mazkur jarayonlarda ustunlikka erishish tobora keng namoyon bo'lmoqda. Yuksak sifatli mutaxassislarni tayyorlash tizimi o'z navbatida oliy ta'lim tizimining sifati, xususan, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. "Aksariyat mamlakatlarda oliy ta'limni davlat tomonidan moliyalashtirish hajmi taxminan YaIMning 1,5 foizini tashkil etadi. Ayrim mamlakatlar (Daniya, Shvetsiya)da universitetlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash yuqori foizlarni tashkil etadi. Qator mamlakatlarda, jumladan, GFR singari, oliy ta'limga to'lov ko'proq holatdagi davlat tomonidan ham rezidentlar, ham xorijiy fuqarolarga stipendiya ko'rinishida amalga oshiriladi"¹. Global ta'lim makoniga qo'shilish vazifasini qo'ygan mamlakatlarda mazkur bozor sohasining muayyan talablariga javob berish hamda birinchi navbatda, bu ta'lim xizmatlari sifatiga qo'yiladigan talablarga alohida e'tibor qaratish dolzarb masalalardan hisoblanmoqda.

Jahon iqtisodiyotida global raqobatning sharoitida ayni paytda bilim, inson kapitali va innovatsion rivojlanish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarga e'tibor kuchayib bormoqda. Intellektual salohiyat hamda innovatsion resurslarga sarmoya kiritish hajmini oshirish, ilmiy innovatsiyalarni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash va amaliyotga samarali tatbiq etish, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni moliyalashtirishni takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, boshqaruv tizimlarini optimallashtirish va hisobdorligini oshirish orqali ularning daromad manbalarini diversifikatsiya qilish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari salohiyatini yanada oshirish, olib borilayotgan islohotlar va zamon talabiga to'liq javob beradigan oliy ta'lim muassasalarini ochish, sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va ta'lim sohasiga zamonaviy o'qitish metodologiyasini keng joriy etish, oliy ta'lim dargohlarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, ta'lim muassasalarini moliyaviy o'z-o'zini ta'minlash tizimiga o'tkazilmoqda. Bu borada "Kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida milliy malaka tizimini ishlab chiqish, ...maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2020-yilda kamida 25 foizga va kelgusida 50 – 60 foizga yetkazish"² vazifalari belgilab berildi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozori o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishning nazariy-amaliy jihatlarini tadqiq etish, OTMlarda bir nafar talabaga o'rtacha to'g'ri keladigan xarajat va to'lanayotgan to'lov-kontrakt miqdorlari o'rtasidagi salbiy farq, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini

¹ Овчинникова О.П., Овчинникова Н.Э. Финансирование высшего образования в развитых странах и России: анализ современных тенденций // Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. 6 (2018). – С.37. - <http://buh-izdat.ru/journals/accounting-in-budgetary/>

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. /Халк сўзи, 2020 йил, 25 январь. -3 б.

tijoratlashtirishdagi moliyaviy masalalar, mavjud moddiy-texnika bazasidan unumli foydalangan holda qo‘shimcha faoliyat turlarini joriy etish, oliy ta‘lim tizimiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, oliy ta‘lim uchun xarid qilinadigan tovar-moddiy qiymatlar, xizmatlar xaridini erkinlashtirish siyosatini takomillashtirish, oliy ta‘lim muassasalarida to‘lov-kontrakt va budjetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larining g‘aznachilik orqali tartibga solinishi, budjetdan tashqari ishlab topilgan mablag‘larni tasarruf etishda mustaqillikni ta‘minlash, budjet mablag‘lari hisobidan ajratilayotgan mablag‘larga qo‘llaniladigan tuzatish koeffitsiyentlarini takomillashtirish borasida ilmiy-tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 11-iyuldagi PQ–4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 467-sonli qarori va ushbu yo‘nalishdagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi³.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Oliy ta‘lim tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish tizimdagi mavjud holatni baholash imkoni yaratilishini ko‘rsatmoqda. Bu borada dastlab rivojlangan mamlakatlarda tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, xususan, xorijlik olimlardan T.Maltus ta‘limni aholi soni ko‘payishi qonunlari bilan bog‘laydi, J.Ayt ishlab chiqarish omillari unumdorligi bilan, J.Kuloch ishlab chiqarish va iste‘mol nazariyasi orqali, J.Mill ta‘limni mehnat taqsimotining destruktiv jarayoni tufayli ishchilarning tanazzulga davosi sifatida ko‘rib chiqadi⁴.

³ [www.lex.uz](https://lex.uz/docs/5841063) миллий қонунчилик базаси. <https://lex.uz/docs/5841063>.

⁴ Қаранг: Клочков В. В. Экономика образования: иллюзии и факты. М.: Мысль, 1985. 176 с. Маршалл А. Принципы экономической науки. –М.: Прогресс, 1993. с. 267., Salvatore D. International Economics. –London: Prentice - Hall, 2004. p. 840.

A.Smit, D.Rikardo, A.Marshall, Dj.Mill, E.Xeksher, B.Olin, G.Xaberler, D.Salvatore, J.Vayner, J.Tinbergen, B.Balasha, J.Med, L.Sfu, S.Fan, L.Chjou, V.M.Bautin, I.N.Buzdalov, A.Dankevich, X.Jonson, R.Lipsey⁵ kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarda ta'lim tizimida moliyaviy islohotlar, inson kapitaliga ta'limning ta'siri, ta'lim iqtisodiyotining vujudga kelishi, bosqichlari va xususiyatlari, shart-sharoitlari, rivojlanishi, milliy iqtisodiyot uchun samarasi va uslubiy jihatlari asoslab berilgan.

Iqtisodchi olimlarning asarlarida ta'lim tizimini moliyalashtirish, moliyaviy resurslar samaradorligi, inson kapitali tushunchasi va uning metodologiyasi va ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan. O'tgan asrning 20-yillarida akademik S.G.Strumilin birinchilardan bo'lib o'z tadqiqotlarida ta'lim omili tufayli milliy daromadning o'sishini hisoblash taklifini bergan, bu esa o'z navbatida ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligi to'g'risida gapirishga imkon beradi⁶.

So'nggi yillarda oliy ta'lim sifati, unda mavjud moliyaviy resurslar samaradorligi muammosi juda jadal ravishda rivojlanmoqda, chunki bu mehnat bozori salohiyatini oshirishning asosiy manbalaridan biri sifatida iqtisodiyotni va ta'lim tizimini isloh qilish jarayoniga bog'liqdir. Ta'lim samaradorligining uslubiy yondashuvlari bo'yicha rossiyalik iqtisodchi olimlardan V.Antropov, A.Daynovskiy, V.Jamin, V.Zuyev, S.Kostanyan, V.Klochkov, Ye.Lipkina va amerikalik iqtisodchi olimlar E.Denison, F.Shuls va boshqalarning ishlarida to'xtalib o'tilgan⁷.

So'nggi yillarda respublikamizda bozor munosabatlari sharoitida ta'lim xizmatlarini boshqarish, sohada marketing tadqiqotlari kabi yo'nalishlarda munosib ilmiy izlanishlar olib borgan mualliflar sifatida S.S.G'ulomov, Q.X.Abdurahmonov, B.Yu.Hodiyev, A.Sh.Bekmurodov, M.X.Saidov, U.A.Burxanov, S.A.Abdullayev, R.R.Xasanov, S.M.Buzrukxonov, A.V.Vahabov, T.S.Malikov, N.X.Haydarov, D.H.Nabiyev, O.O.Olimjonov, D.X.Po'latov, S.Safoyev, Sh.Toshmatov, M.Tursunxodjayev, M.Qosimova, M.Nisritdinova, A.Rasulov, Z.Qo'ziyev, D.Sagdullayev, A.Mahmudov, X.Rejapov, A.Sherov va boshqalar⁸ni ko'rsatish mumkin.

Xususan, akademik Q.X.Abdurahmonov O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishda ta'lim tizimini isloh qilish hamda uni boshqarish yuzasidan ilmiy xulosalar bergan. Akademik S.S.G'ulomov O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirish orqali inson kapitalining o'ziga xos ahamiyatini tadqiq etgan hamda uni rivojlantirishning o'zbek modeliga alohida e'tibor qaratgan. Professor Sh.A.Toshmatov ijtimoiy sohada budjet xarajatlarini prognozlashda ta'lim va

⁵ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз, 1962. с. 332., Рикардо Д. Начало политической экономии и налогового обложения. –М.: Прогресс, 1993. с. 292.,

⁶ С.Г.Струмилин. Методология оценки и повышения эффективности государственной системы высшего профессионального образования: Автореф. дис. докт.экон. наук (08.00.05). — СПб., 2002. — 41 с.

⁷ К.В.Якушева Методические рекомендации по расчету нормативов бюджетного финансирования образовательных учреждений. — М.: Новая школа, 1995. –64 с, Система финансирования образования: анализ эффективности / Под ред. С.А. Беякова. — М.: Технопечать, 2003. — 182 с. Х.Воссенштейн Финансовое напряжение: тенденции финансирования высшего образования и политический курс в ситуации ограниченных средств // Университетское управление: практика и анализ. 2003. № 3(26). – С. 51-60.

⁸ Ушбу олимларнинг ишлари диссертациянинг фойдаланилган адабиётлар қисмида кўрсатилган.

sogʻliqni saqlash sohalarining xususiyatlari boʻyicha ilmiy-amaliy xulosalar bergan.

Taʼkidlash joizki, Oʻzbekistonda oʻrganilayotgan muammo yuzasidan chop etilgan ilmiy tadqiqotlar, bajarilgan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari, asosan, menejment va marketing ixtisosligi boʻyicha boʻlib, mavzuning nazariy-uslubiy jihatlari umumlashtirilgan va rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilingan ilmiy ishlar deyarli yoʻq. Natijada oliy taʼlim tizimi va undagi moliyaviy resurslarning samaradorligini oshirishning nazariy jihatlari tadqiq etilishi, uni diversifikatsiyalash, sohada raqobat muhiti shart-sharoitlarini yanada kuchaytirish, samaradorligini aniqlashning ilmiy-uslubiy jihatlari oʻrganish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, masalaga milliy iqtisodiyot nuqtayi nazaridan, talaba va aholi keng qatlamlari hamda mintaqaviy nuqtayi nazaridan zamonaviy fundamental-innovatsion xarakterdagi iqtisodiy tadqiqotlarni tashkil etishgacha boʻlgan uzluksiz oliy taʼlim tizimi sifatida yondashuv amalga oshirilmagan.

Bir qator tadqiqotlarda oliy taʼlim muassasalari moliyaviy boshqaruviga mintaqaviy iqtisodiyot va tarmoq iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan yondashilgan boʻlib, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida oliy taʼlim muassasalarining maʼlum yoʻnalishdagi moliyaviy resurslarining samaradorligi taʼsirlari, moliyaviy amaliyotlar koʻrinishlari va yoʻnalishlari koʻrib chiqilgan, xolos. Mazkur ishlarda oliy taʼlim tizimining moliyaviy resurslari mazmuni, vujudga kelish sharoitlar, moliyaviy tuzilishi asoslangan. Shu bilan birga, iqtisodiyotdagi innovatsion yondashuv sharoitida oliy taʼlim tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirilishi hamda nazariy jihatdan yanada kengroq oʻrganilishi maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy ishlari rejasiga muvofiq FM-1 “Oʻzbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashning ilmiy-metodik asoslari va usullarini takomillashtirish” (2017-2021 yy.) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy taʼlim tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mamlakat oliy taʼlim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarga muvofiq, oliy taʼlim tizimini moliyaviy jihatdan barqaror rivojlantirish strategiyasi doirasida ilmiy yondashuv va uslublarni ishlab chiqish;

oliy taʼlim tashkilotlari va ulardagi mavjud moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda xorijiy mamlakatlardagi ilgʻor tajribalarni oʻrganish va mahalliy sharoit hamda imkoniyatlar asosida ularni amaliyotga tatbiq etish boʻyicha amaliy tavsiyalar yaratish;

turli iqtisodiy rivojlanish darajasida oliy taʼlim muassasalari moliyaviy resurslari va uning samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish boʻyicha yangi yondashuvlarni asoslash;

milliy iqtisodiyotning turli rivojlanish bosqichlarida oliy ta'lim tizimida iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish, uni majmuali iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq muammolar va nomutanosibliklarni aniqlash;

oliy ta'lim muassasalarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ilmiy asoslash va uni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi dastaklarini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalari olingan.

Tadqiqot predmeti bo'lib oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada iqtisodiy va statistik tahlil, tizimli va qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil va sintez-prognozlash, ilmiy abstraksiya va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim tizimida bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib, biroq oliy ta'lim muassasasini o'zini o'zi to'liq moliyaviy ta'minlash, istiqbolda rivojlantirish hamda ta'lim xizmatlari bozoridagi o'zaro raqobat asosida belgilash taklifi asoslangan;

oliy ta'lim muassasalarida talabalar sonining moliyaviy resurslarga nisbatan nomutanosibligi bois to'lov-kontrakt va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladigan to'lovlarda yagona ijtimoiy to'lov miqdorini 12 foiz darajasiga qadar pasaytirish taklifi asoslangan;

oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy resurslar ajratishda budjet xarajatlar smetasi asosida hisoblab chiqilgan umumiy mablag'lar hajmini mamlakat bo'yicha o'rtacha inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda ko'paytirish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot hajmi va demografik omillar ta'siri asosida oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining 2026-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslar samaradorligini oshirishning uslubiy asoslari hamda strategiyasini turli darajalarda ishlab chiqishning bosqichlari asoslangan;

diniy oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish iqtisodiy salohiyatdan foydalanish orqali rivojlantirishning imkoniyatlari aniqlangan;

diniy oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslar samaradorligini oshirishning yo'nalishlari dalillangan;

oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish strategiyasi ilmiy asoslangan, uning istiqbol variantlari va ijtimoiy-iqtisodiy natijalari isbotlangan;

oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslar samaradorligini oshirishning huquqiy-me'yoriy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, nazariy ma'lumotlarning olingan natijalar bilan mos kelishi, olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, barcha raqamli ma'lumotlar zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llab ishlov berilganligi, shuningdek, tadqiqot natijalarining xalqaro hamda mahalliy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi, chiqarilgan xulosa hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan, statistik usullarning qo'llanilishi olingan natijalarning ishonchliligini ta'minlagan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida olingan xulosa va takliflardan kelajakda oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslar samaradorligini tadqiq qilishga qaratilgan maxsus mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlarida, respublikadagi oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish darajasini oshirish hamda mavjud moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashga mo'ljallangan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan respublikadagi oliy diniy ta'lim muassasalarini tizimli moliyalashtirish uslubiyati va mexanizmini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

oliy ta'lim tizimida bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib, biroq oliy ta'lim muassasasini o'zini o'zi to'liq moliyaviy ta'minlash, istiqbolda rivojlantirish hamda ta'lim xizmatlari bozoridagi o'zaro raqobat asosida belgilash taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son qarorining 3-bandida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 21-iyuldagi 06/12-32/2570-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida OTMlarning moliyaviy mustaqilligi mustahkamlanishi va mavjud moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish mexanizmi takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarida talabalar sonining moliyaviy resurslarga nisbatan nomutanosibliigi bois to'lov-kontrakt va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladigan to'lovlarda yagona ijtimoiy to'lov miqdorini 12 foiz darajasiga qadar pasaytirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son qarorining 10-bandida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 21-iyuldagi 06/12-32/2570-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi

natijasida OTMLar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, professor-o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirish va malakasini oshirish, oliy ta'lim ilmiy salohiyatini ko'tarish samaradorligi oshishiga erishilgan;

oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy resurslar ajratishda budget xarajatlar smetasi asosida hisoblab chiqilgan umumiy mablag'lar hajmini mamlakat bo'yicha o'rtacha inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda ko'paytirish taklifi "O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti to'g'risida" Qonunning 5-ilovasida 2021-yilda oliy ta'lim muassasalariga ajratilgan budget mablag'lari parametrlarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 21-iyuldagi 06/12-32/2570-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2022-yil 25-avgustdagi 02-03/6690-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida OTMLarga ajratilgan budget mablag'lari samaradorligi oshishiga, moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishiga imkoniyat kengaygan;

O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot hajmi va demografik omillar ta'siri asosida oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining 2026-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston musulmonlar idorasi Ulamolar kengashi Oliy hay'atining maxsus qarorida hamda sohani rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2022-yil 25-avgustdagi 02-03/6690-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta'lim muassasalarida maqsadli moliyaviy rejalashtirish hamda qo'shimcha moliyaviy ta'minot manbasi hisobiga ta'lim sifatini oshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, shulardan 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning “**Oliy ta’lim tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining nazariy va uslubiy jihatlari**” deb nomlangan birinchi bobida mavjud nazariy-uslubiy qarashlar, oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari, bu boradagi ilg’or xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish imkoniyatlari taklif qilingan.

Oliy ta’lim tizimi va undagi moliyaviy resurslar samaradorligi masalasi uzoq yillardan beri iqtisodchi olimlarni qiziqtirib, ko’pgina ilmiy munozaralarga sabab bo’lgan mavzulardan biri bo’lib qolmoqda. Shu bilan birga uning “samaradorlik” toifasining mohiyati va mazmunini belgilab olmasdan, samaradorligiga baho berish imkonsiz.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning raqamli iqtisodiyotga transformatsiyalashuvi sharoitida, “samaradorlik” tushunchasi alohida dolzarblikka ega kategoriya sifatida yuzaga chiqdi. Bozor munosabatlari sharoitida nafaqat jamiyat va davlat, balki har bir inson o’z ehtiyojlarini qondirish uchun sarflangan mehnat xarajatlarining qanday qoplanganligiga, uning manbasiga e’tiborsiz emas.

Oliy ta’lim tizimida mavjud moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi masalasini yoritishda bevosita inson kapitali nazariyasi, inson omiliga yo’naltirilgan investitsiyalar samaradorligi nazariyasi va mehnat salohiyatining tashuvchisi sifatida talqin qilish ushbu tadqiqot doirasida ko’rib chiqishni talab etdi.

Oliy ta’lim muassasalari moliyaviy resurslarining samaradorligi faqat ushbu sohaning rivojlanishini emas, balki milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga kirib borishi va buning natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samaradorlikni oshishi hamda ijtimoiy taraqqiyotning jadallashishini ta’minlaydi.



1-rasm. Oliy ta’lim samaradorligi toifasi⁹:

⁹ Manba muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslarini o'rganishda asosiy e'tibor nafaqat uning shakllanishiga, balki uning samaradorligiga qaratilishi zarur. Chunki jamiyat miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar markazida oliy ta'lim muassasalari, ta'lim iqtisodiyoti, xususan, mamlakatning har tomonlama rivojlanishiga katta hissa qo'shadigan oliy ma'lumotli intellektual kadrlar tayyorlash siyosati yotadi.

1-jadval

OTMlarda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini o'rganishning ilmiy yondashuvlar tasnifi¹⁰

№	Muallifi	Yondashuvning mohiyati
1	S.Strumilin, V.Jamin	Oliy ta'lim samaradorligini o'rganishda uning milliy iqtisodiy samaradorlikka ta'siri alohida e'tiborga olingan
2	N.Jilsov, S.Kostyan, V.O.Rukavishnikov	Oliy ta'lim iqtisodiy samaradorligi ichki va tashqi samaradorlikka ajratilgan holda o'rganilgan
3	A.Neyl	Asosiy mezon sifatida talabaga beriladigan bilim hajmi, har bir talabaga yiliga ma'lum miqdordagi o'quv fanlarini o'zlashtirishga sarflangan vaqt bilan belgilanishini va bu hajm standart me'yoriy soatlar bilan o'lchanishini taklif qilgan
4	A.I.Subetto	Ushbu nazariyada oliy ta'lim samaradorligini milliy daromadning o'sishiga mutanosib ravishda belgilangan ulush orqali aniqlash taklif qilingan
5	Edvard F.Denison	OTMni moliyalashtirish samaradorligini baholashda korrelatsion yondashuvdan foydalangan va ta'limning ishchi kuchi sifatida namoyon bo'lgan iqtisodiy ahamiyati g'oyasini ilgari surgan
6	V.Antropova, A.Galagana, V.Zuyeva, V.Kineleva	Oliy ta'lim tizimi samaradorligi masalasiga makro (milliy) darajadan tashqari mintaqa nuqtayi nazaridan ham yondashilgan
7	T.Shultz, G.Bekker, H.Boven, M.Blaug, J.Minker, S.Polachek	Oliy ta'limning o'rni va hissasi inson kapitali nazariyasi doirasida o'rganilgan
8	R.Pukas, N.Mankiv, D.Domer, D.Veil, J.Benhabib, M.Spigel	Inson kapitalini iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omil sifatida baholab, empirik tadqiqot asosida makroiqtisodiy modellardan foydalangan
9	J.Yo'ldoshev, A.Sherov, D.Rahmonov, A.Po'latov, Ye.Viyetsma	Oliy ta'limni moliyalashtirishda budget mablag'laridan samarali foydalanish va bu borada xorij tajribasini o'rganish taklif etilgan
10	Sh.Rasulov, N.Shamshiyeva, A.Mahmudov, S.Buzrukxonov	Oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor sherikligi masalalariga urg'u berilgan
11	Bizning yondashuvimiz	OTMdagi moliyaviy resurslar samaradorligi – erishilgan natijalarni (masalan, YaIMning o'sishi) sarflangan xarajatlar bilan qiyoslash orqali baholash taklif qilingan

¹⁰ Manba:Tahliliy materiallar asosida muallif tomonidan tuzilgan

Oliy ta'limning iqtisodiy samaradorligini hisobga olgan holda, uni ikki toifaga ajratish mumkin:

Milliy iqtisodiy samaradorlikni baholashning korrelatsion yondashuvlari AQShlik iqtisodchi olimlarga xos bo'lib, jumladan, Edvart F.Denison ta'limning ishchi kuchi sifatida namoyon bo'lgan iqtisodiy ahamiyat g'oyasini ilgari surgan¹¹.

Bugungi kunda ba'zi iqtisodchilar guruhi oliy ta'lim tizimi samaradorligi masalasini mikro- va makrodarajadan tashqari mintaqa nuqtayi nazaridan ham ko'rib chiqishni taklif etmoqda. Bu kabi tadqiqotchilarga V.A.Antropova¹², A.I.Galagana¹³, V.M.Zuyeva¹⁴, V.G.Kineleva¹⁵ va boshqalarni keltirish mumkin. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning umumlashtirilishi mintaqaviy iqtisodiyot darajasida oliy ta'lim samaradorligini anglash to'g'risida ma'lum xulosalarni olishimizga imkon beradi.

Fikrimizcha oliy ta'lim tizimi samaradorligiga bu kabi yondashuvlar bir qator salbiy jihatlardan xoli emas.

Birinchi, iqtisodiy tarkibiy qism haqida ham, milliy iqtisodiy samaradorlik to'g'risida ham xuddi shunday dalillarni keltirish mumkin. Ijtimoiy tarkibiy qismni yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'lchash ancha qiyin, chunki ta'lim natijalarini ushbu qismlarga ajratish, mehnat unumdorligini oshirishda ta'lim hissasidan ham qiyinroq masala sanaladi.

Bundan tashqari, demografik ta'sir nuqtayi nazardan, oliy ma'lumot ma'lum darajada yosh va jins tuzilishiga hamda aholi soniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki ta'lim darajasining oshishi bilan birga tug'ilish darajasi ham kamayadi.

Talabalar tomonidan oliy ta'limda o'qish davomida o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotga qo'llash hisobiga YaIM oshishi va 1 nafar talabani o'qitish xarajatlari o'rtasidagi farq oliy ta'lim samaradorligining ko'rsatkichidir. Yuqoridagilarga qo'shimcha qilgan holda, OTMLarda moliyaviy resurslar samaradorligini hisoblash uchun quyidagi formulani tavsiya etish mumkin:

$$MRS = \sum_{i=17}^{22} \Delta \text{cost } ts / (1+r)^{i-17} / \text{YaIM} * 100\%.$$

Bu yerda: MRS – moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi; cost st – o'quv davrida 1 nafar talabaga qilingan xarajatlar (4 yil – 17 yoshdan 22 yoshgacha);

r – qayta moliyalashtirish stavkasi; YaIM – yalpi ichki mahsulot o'sish ko'rsatkichi. Masalan: 2021 yilda respublikamizda YaIM 7,3 foizga oshgan, 1

¹¹ Estimates of Productivity Change by Industry An Evaluation and an Alternative, 1989. - 67 c.

¹² Аузан А.А. Институциональное проектирование реформ: опыт и попытка прогнозирования: препринт WP10/2007/09. - М.: ГУ ВШЭ, 2007. -24 с.

¹³ Галаган А.И., Чурьянов Ю.Д. Реформы высшего образования в странах центральной Европы. - М.: НИИВО, 1997- 63 с. - (Проблемы зарубежной высшей школы: обзор, информ. Вып.

Галкин Л.Г. Политическое содержание понятие эффективность социалистического производства. - М., 1976.-с. 5 - 31

¹⁴ Исследовательские университеты в России: пути становления и развития / Чубик П.С, Чучалин А.И., Похолков Ю.П., Агранович Б.Л. // Университетское управление: практика и анализ. - 2009. - № 1. - С. 22-30.

¹⁵ Князев Е.А., Таверньи К. Теория организации и современный университет // Развитие стратегического подхода к управлению в российских университетах / под ред. Е.А. Князева. — Казань: Унипресс, 2001.- С. 216-228.

nafar talabani o‘qitish xarajatlari 10,3 foizga ko‘tarilgan, qayta moliyalashtirish stavkasi 15 foizni tashkil etgan. Yuqoridagi formula bo‘yicha, 1,39 koeffitsiyent samaradorlikka erishilgan.

So‘nggi yillarda oliy ta‘lim tizimida olib borilgan islohotlar, jumladan, oliy o‘quv yurtlari sonining ko‘payishi, viloyatlarda ularning filiallari ochilishi kabi holatlar masalani mintaqaviy nuqtayi nazardan nazariy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini ko‘rsatadi. Bu kabi oliy dargohlarning ochilishi bevosita mintaqada bandlik va ishsizlik, qolaversa, uyushmagan yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishda katta hissa qo‘shishi va o‘zining samarasini ko‘rsatishi mumkin.

2-jadval

Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan OTMLar va ulardagi talabalar kontingenti o‘shish dinamikasi¹⁶

Ko‘rsatkichlar		Budjetdan moliyalashtiriladigan OTMLar jami	Talabalar soni yil oxirida jami	Tasdiqlangan qabul kvotalari (ta‘limning barcha shakllari uchun)	1 talabaga o‘rtacha xarajatlar
Yil	O‘lchov birligi	sht	nafar	nafar	ming. so‘m
2017-yil	Jami	78 ta yil yakunida	300 677	73 086	7 132
	Budjet		79 505	21 265	9 290
	Kontrakt		221 172	51 821	6 356
2018-yil	Jami	89 ta yil yakunida	358 499	102 885	7 865
	Budjet		83 706	21 488	10 498
	Kontrakt		274 793	81 397	7 063
2019-yil	Jami	99 ta yil yakunida	444 170	121 052	9 338
	Budjet		89 534	27 801	14 489
	Kontrakt		354 636	93 251	8 037
2020-yil	Jami	106 ta yil yakunida	551 431	158 570	10 968
	Budjet		106 027	37 165	15 752
	Kontrakt		445 404	121 405	9 829
2021 yil	Jami	110 ta yil yakunida	561 252	168 685	12 334
	Budjet		115 848	47 280	19 164
	Kontrakt		445 404	121 405	10 558

Oliy ta‘lim samaradorligini aniqlash va baholashga nazariy hamda uslubiy yondashuvlarni umumlashtirish:

ta‘lim sifatining pastligi o‘qish davomida olingan bilim va ko‘nikmalarning bozor talablariga javob bermasligini;

iqtisodiy o‘shishning past sur‘atlarida bilim va ko‘nikmalar talab qilinmasligi hamda malakali oliy ma‘lumotli mutaxassislarining tegishli ish haqi bilan ta‘minlanmasligini;


¹⁶ <https://www.mf.uz/> Moliya vazirligi statistik xisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

oliy ta'limga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarning samaradorligi borasida chuqur nazariy-ilmiy, uslubiy yo'nalishlarning rivojlantirilishini;

oliy ta'limning ommaviylashuvi, aholi keng qatlamlarining bu ta'lim xizmatlaridan foydalanishlariga keng sharoit yaratishni;

moliyaviy resurslardan foydalanishni takomillashtirish va sifat darajasini oshirish maqsadida dunyodagi eng ilg'or mamlakatlar bilan tajriba almashish, global ta'lim jarayonlarida faol ishtirok etish hamda o'qituvchi va talabalar oldida turgan sun'iy to'siqlarni bartaraf etish hamda Boloniya jarayoniga qo'shilish bo'yicha ishlarni yo'lga qo'yishni;

jahon tajribasida keng e'tirof etilgan anglosakson ta'lim tizimining pragmatik jihatlarini singdirib borish, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatdi.



2-rasm: Oliy ta'lim muassasalarini moliyalash manbalari strukturasi¹⁷

Mana shunda oliy ta'lim tizimiga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarning samaradorligi oshishi uchun ijtimoiy raqobat muhiti shakllanadi, professionalizm kuchayadi, oliy ta'lim milliyliigi ham ta'minlanadi.

¹⁷ Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Tizimni moliyalashtirishning keyingi moliyaviy manbasi bu – ta’lim xizmatlarini diversifikatsiyalash orqali, ya’ni pullik asosda, doktorantlarni, tadqiqotchilarni, OTMLar o’rtasida qo’shma o’qishlar tashkil etish, xalqaro dasturlar, professional qayta tayyorlov kurslari, xorijiy til o’rganish kurslari va boshqa ta’lim xizmatlarini ko’rsatish orqali moliyalashtiriladi. Bugungi kun talabi sifatida OTMLar tomonidan yaratilayotgan innovatsion ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish orqali ham mablag‘ tushirilishiga e’tibor qaratish lozim.

Ayrim tadqiqotchilar OTMLar moliyaviy manbalaridan biri sifatida yashirin (korrupsion) aylanma mablag‘larni ham ko’rsatadilar¹⁸.

So’ngi yillarda o’zining dolzarbligini ko’rsatayotgan ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, ishlab chiqarishga yo’naltirish va bozor uchun talabgir innovatsion mahsulotga aylantirish ilm-fanni iste’molchi bilan bog’laydigan zanjirning eng qiyin va dolzarb bosqichi ekanligi oydinlashib qolmoqda. Buning asosiy sabab va omillaridan biri ilmiy-innovatsion ishlanmalarni yaratayotgan olimlarning bozor va iste’molchi ehtiyojlarini yaxshi bilmasligi hamda ilm-fan va real iqtisodiyot o’rtasida uzviy bog’liqlikning yillar davomida bir-biridan uzoqlashib qolganligidadir. Ushbu holatni olimlarning texnologik tadbirkorlik tajribasi va tegishli amaliy bilim hamda ko’nikmalarga ega emasliklari bilan izohlash mumkin.

“O‘zbekistonda OTMLar moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda yangi tendensiyalar va o‘ziga xos xususiyatlar” deb nomlangan ikkinchi bobda iqtisodiyotni raqamlashtirish tartibida OTMLar moliyaviy resurslarini shakllantirish amaliyoti va samaradorligi tahlili, diniy-ta’lim muassasalarini moliyalashtirish xususiyatlari yoritilgan. Barcha sohalar singari oliy ta’lim tizimiga ham raqamlashtirish jarayoni kirib keldi, shuningdek, tizimni samarali boshqarish, moliyaviy natijadorlik, hisobdorlik masalalarida yaqqol sezilmoqda.

Oliy ta’lim tizimiga davlat budjeti mablag‘lari hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “Bir talabani o‘qitish xarajatlaridan kelib chiqib budjet mablag‘lari hisobiga oliy ta’lim muassasalarining xarajatlarini normativ rejalashtirish va moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori¹⁹ga muvofiq mablag‘ ajratiladi.

Xarajatlarning bazaviy normativlari va ularga tuzatish koeffitsiyentlarini qo‘llash yo‘li bilan OTM uchun budjet mablag‘lari hajmini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshirilmoqda:

$$BSV = (BNZ_1 * K_1 * (N + N_{ko})) + ((BNZ_2 * K_2 + BNZ_3) * (N + N_{ko})) + (BND_1 * (N_{ds} - N_{dsv}) + BND_2 * N_{dsv}) + (OT_{sns} * N_{sns}).$$

Bu yerda: **BSV** – budjet mablag‘lari hajmi; **BNZ₁** – bir talaba uchun joriy xarajatlarning bazaviy normativi; **BNZ₂** – 4-guruh xarajatlar bo‘yicha bir talaba

¹⁸ В.Н.Кабелькова, С.Х.Садовый. Основные виды коррупции в системе высшего образования и способы противодействия им, Вопросы Российской Юстиции, Выпуск 8. <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-vidy-korrupsii-v-sisteme-vysshego-obrazovaniya-i-sposoby-protivodeystviya-im/viewer>

¹⁹ www.lex.uz миллий қонунчилик базаси.

uchun joriy xarajatlarning bazaviy normativi; **BNZ₃** – moddiy-texnika bazani rivojlantirish va yaxshilash bo‘yicha xarajatlarning bazaviy normativi; **N** – hamma ta’lim yo‘nalishlari va bosqichlari bo‘yicha o‘rtacha yillik talabalar soni (sirtqi ta’lim talabalari uchun 0,1 koeffitsiyenti qo‘llaniladi);

O‘rtacha yillik talabalar soni moliya yilida rejalashtiriladigan talabalar sonining kurslar bo‘yicha o‘zgarishini inobatga olgan holda aniqlanadi (qabul, bitiruv, talabalar safidan chiqarish) va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$N = Un + Up/3 - Uv/2 - Uo * 0,6.$$

Bu yerda: **N** – o‘rtacha yillik talabalar soni; **Un** – yil boshiga talabalar soni; **Up** – talabalarni qabul qilishning kutilayotgan soni; **Uv** – bitiruvchi talabalarning kutilayotgan soni; **Uo** – talabalar safidan chiqarishning kutilayotgan soni.

Qaror bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda qayta ko‘rib chiqilishga muhtoj, chunki, bunda so‘nggi yillardagi o‘zgarishlar aks ettirilmagan. Jumladan, doktorantura, tayanch doktorantura va stajyor tadqiqotchilik institutiga qabul qilinayotganlarning stipendiya to‘lovlari bilan to‘ldirilishi lozim.

Mazkur ko‘rsatkichlardan bir talabani tayyorlash uchun qilingan xarajatlar bo‘yicha shuni alohida ta’kidlash kerakki, bugungi kunda ko‘plab davlatlar oliy ta’lim tizimi oldida turgan muammolardan biri, talabalar sonining tez o‘sishi moliyaviy resurslarni ko‘paytirish imkoniyatidan ustun bo‘lib qolmoqda. Chunki talabalar tomonidan to‘lanayotgan to‘lov-kontrakt miqdori belgilangan xarajatlarni qoplamaydi.

2017-yildan 2021-yilga qadar davlat budjetidan moliyalashtiriladigan OTMlar soni 78 tadan 110 taga ko‘paygan, ya’ni, 1,4 barobarga oshgan, mazkur OTMlarda talabalar soni 2017-yilda 300 677 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 561 252 nafarga ko‘paygan, ya’ni, 1,9 barobarga oshgan. 2017-bazaviy yilga nisbatan olganda ushbu jadvalda qabul kvotalari ham ortgan, budjet mablag‘lari hisobida tahsil olayotgan 1 nafar talabaga sarflanadigan xarajatlar miqdori 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 2,06 koeffitsiyent ortgan. To‘lov-kontrakt hisobida 1 nafar talabaga sarflangan xarajatlar 2021-yilda 2017-yilga nisbatan 1,66 koeffitsiyentga oshgan. Bu o‘shishga asosiy omil tabaqalashtirilgan (super) kontrakt va yildan yilga o‘tuvchi hisob raqamdagi qoldiq mablag‘lar hisobiga jalb etilgan mablag‘lar hisoblanadi.

Bugungi kunda bir nafar talabani o‘qitishning o‘rtacha xarajati 10,5 mln. so‘mni tashkil etgani holda, to‘lov-kontrakt qiymati miqdori o‘rtacha 8,7 mln. so‘m etib belgilanmoqda²⁰. Mazkur ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi salbiy farq bugungi kunda yanada kengaydi, chunki, respublika miqyosida oylik ish haqi, nafaqalar va stipendiyalar oshirildi, shu bilan bir qatorda talabalarga pandemiya sharoitida ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida to‘lov-kontrakt miqdoridan chegirma berilganligi bilan izohlash mumkin.

²⁰ www.edu.uz.

Ushbu holat, OTMlarni moliyalashtirishga jiddiy ta'sir etuvchi faktorlardan biri sanaladi. Chunki ushbu nomutanosiblik natijasida belgilangan, rejalashtirilgan xarajatlarni qoplashda muammolar kelib chiqadi, biroq, ushbu yetishmayotgan mablag'lar orttirilgan (super) kontrakt to'lovi orqali qoplanmoqda. Fikrimizcha, bu vaqtinchalik vaziyatdan chiqishga qaratilgan chora-tadbirdir, lekin jahon tajribasida, bu kabi holatlar bevosita oliy o'quv yurtining reytingiga va samaradorlik ko'rsatkichlariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadigan ko'rsatkich sifatida qaraladi va baholanadi.

3-jadval

Ayrim OTMlarda bir talabaga sarflangan xarajatlarni me'yoriy rejalashtirish va moliyalashtirish ko'rsatkichi²¹

OTM nomi		O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya universiteti	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi	Navoiy davlat konchilik instituti	
Yillar	2018- yil	Byudjet mablag'lari hisobida o'qiydigan talabalar kontingenti	100	190	170
		Ajratilgan byudjet mablag'lari	1 018 148	9 100 067	12 662 428
		1 nafar talabaga to'g'ri keladigan miqdor	10 181	47 895	74 485
	2019- yil	Byudjet mablag'lari hisobida o'qiydigan talabalar kontingenti	114	313	170
		Ajratilgan byudjet mablag'lari	3 072 401	32 714 610	17 380 892
		1 nafar talabaga to'g'ri keladigan miqdor	26 951	104 520	102 241
	2020- yil	Byudjet mablag'lari hisobida o'qiydigan talabalar kontingenti	221	408	180
		Ajratilgan byudjet mablag'lari	5 687 902	35 655 710	21 828 990
		1 nafar talabaga to'g'ri keladigan miqdor	25 737	87 391	121 272

3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, oliy o'quv yurtlarida har 1,0 nafar talabaga to'g'ri keladigan ko'rsatkich turlicha. Jumladan, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya universitetida 2018-yil 23 678,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, O'zXIAda bu ko'rsatkich 47 895,0 ming so'mni va NDKIda 74 485,0

²¹ <https://www.mf.uz/> Moliya vazirligi statistik xisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

ming soʻmni tashkil etgan. 2019–2020-yillarda ham 1 nafar talabaga toʻgʻri keladigan miqdor turlichaligi saqlanib qolinmoqda, bundan shuni anglash mumkinki, budget mablagʻlari ajratilishida oliy oʻquv yurtlarining oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida yondashilgan. Biroq, OTMlarning samaradorligi koʻrsatkichlarini tahlil qilishda bu kabi turli xillik bir qancha alohida yondashuvlarni amalga oshirishni talab etadi.

Bugungi kunda OTMlar oldiga budgetdan tashqari mablagʻlar ishlab topish, mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va texnopark, forsait, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarni tashkil etish vazifalari qoʻyilmoqda. Bularning barchasini tashkil etish va yoʻlga qoʻyish uchun esa bevosita moliyaviy resurslar talab etiladi.

Tahlillarga koʻra, bugungi kunda aksariyat OTMlarga talabalar kontingentidan kelib chiqib ajratilayotgan budget va toʻlov-kontrakt mablagʻlari ularning moddiy texnika bazasini zamon talablari darajasida saqlab turish xarajatlarini qoplamaydi. Shu bilan bir qatorda 2018-yil 1-sentyabrdan 2019-yil 1-iyuliga qadar OTMlarda hukumatning tegishli qaroriga asosan, professor-oʻqituvchilarning oylik ish haqlari 75-80 foizga oshirildi. Biroq, ushbu ijobiy oʻzgarishlarning moliyaviy aksi toʻlov-kontrakt mablagʻlarida toʻliq aks etmaganligini koʻrishimiz mumkin. Qolaversa, koronavirus inqirozi natijasida aholini ijtimoiy himoyalash va ularni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash maqsadida toʻlov-kontrakt hisobidan oʻqiydigan talabalarga ikki marta 10 foiz miqdorida imtiyoz berildi. Mazkur holatlarning barchasi bevosita OTMlarda asosiy moliyaviy manbalardan biri boʻlgan toʻlov-kontrakt mablagʻlariga oʻzining salbiy taʼsirini koʻrsatmasdan qolmadi.

Diniy taʼlim (oliy taʼlim) muassasalarini moliyalashtirish, professor-oʻqituvchilarga oylik ish haqlari joriy etish, talabalarga (stipendiya) nafaqalar tayinlash masalalari ularning moliyaviy holatlari, tamoyillari va manbalari borasida yetarlicha yechimlar yoʻq.

Toʻgʻri, respublikamizda davlat va din munosabatlari qonuniy tartibga solingan hamda barcha mezonlari aniq koʻrsatib oʻtilgan. Biroq, aholimizning asosiy qismini islom diniga eʼtiqod qiluvchi musulmonlar tashkil etishini va bu soha mutaxassislariga talabning yuqoriligi inobatga olgan holda diniy oliy taʼlim muassasalarini tizimli moliyalashtirish, sohada faoliyat olib borayotgan professor-oʻqituvchi va talabalarning moddiy taʼminotini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish hamda kadrlar qoʻnimsizligi kabi masalalarning oldini olish, sohada yetuk kadrlar yetishib chiqishiga zamin yaratish uchun mazkur yoʻnalishdagi oliy taʼlim muassasalarini moliyalashtirish va mavjud moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish boʻyicha ham mahalliy ham xorij tajribasini keng tadqiq etgan holda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalash ishlab chiqish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Mazkur masalalar yechimi sifatida diniy taʼlim muassasalarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida ilmiy asoslangan konsepsiya ishlab chiqilishi va keng jamoatchilik fikrlari oʻrganilgan holda moliyalashtirish manbalari boʻyicha takliflar berilishi maqsadga muvofiq.

4-jadval

Dunyoviy va diniy oliy ta'lim tizimlarida moliyaviy resurslarni shakllantirish va rivojlantirishdagi umumiy hamda o'ziga xos jihatlar²²

OTM	Moliyaviy resurslarni shakllantirish va rivojlantirish	Umumiy jihatlar	Farqli jihatlar	Izoh
Dunyoviy va diniy OTM lar	Budjet mablag'lari hisobidan		+	Diniy OTMlarga budjet mablag'lari ajratilmaydi
	O'qish xarajatlarining barchasi qoplanishi shart bo'lgan talabalar hisobidan		+	Ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash orqali, ya'ni pullik asosda aspirant, doktorant, tadqiqotchilar, OTMlar o'rtasida qo'shma o'qishlar tashkil etish, xalqaro dasturlar, qayta tayyorlash kurslari va boshqa ta'lim xizmatlarini ko'rsatish diniy oliy ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilmagan
	To'lov-konrakt asosida o'qiydigan talabalardan tushadigan mablag'lar	+		OTM moliyaviy manbalaridan biri bu — to'lov-konrakt mablag'lari. Nazariy jihatdan bu budjetdan tashqari mablag'larining taxminan 80 foiziga teng bo'lishi lozim. Bu moliyaviy manba har ikkala yo'nalishdagi OTMlarda mavjud. Biroq dunyoviy OTMlarda (2431-son Nizom asosida) aniq hisob-kitob bilan, diniy OTMlarda tartibga solinmagan
	OTMlarning tadbirkorlik faoliyatidan tushadigan mablag'lar		+	OTMlarning tadbirkorlik faoliyati bilan bevosita va bilvosita shug'ullanishidir. Jumladan, bunga bino va inshootlardan bo'sh turgan qismini ijaraga berishi, nashriyot va bosmaxona faoliyatini yo'lga qo'yish, talabalar yotoqxonalarini pullik asosda talabalarga berish, umumiy ovqatlanish shoxobchalarini yo'lga qo'yish va boshqa huquqiy yo'nalishlar kiradi. Ushbu tushumlar budjetdan tashqari umumiy tushumlarning 6 foiz qismini tashkil etishi mumkin. Mazkur yo'nalish dunyoviy OTMlarda VMning 414-son qaror bilan tartibga solinadi
